



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAkatINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



UDK: 330.1(576.2)

INVESTITSİYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ergashev Olim

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

eolimbek@mail.ru[ORCID 0009-0002-3335-8167](https://orcid.org/0009-0002-3335-8167)

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi maxsus iqtisodiy zonalarining investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Investitsiyalarni faol jalb etish orqali maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: infratuzilma, maxsus iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, investor, tashqi savdo, eksport, import, raqamli texnologiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion faollik, investitsiya muhiti, erkin iqtisodiy hudud.

Abstract. The article comprehensively examines the role of special economic zones in the economic and social development of Uzbekistan, particularly their importance in attracting investments into various sectors of the economy. Scientifically grounded practical recommendations have been developed to enhance the efficiency of special economic zones through increased investment activity.

Key words: infrastructure, special economic zone, tax incentives, investor, foreign trade, export, import, digital technologies, foreign direct investment, investment activity, investment climate, free economic zone.

Аннотация. В статье подробно рассматривается значение специальных экономических зон, играющих важную роль в экономическом и социальном развитии Узбекистана, а также их вклад в привлечение инвестиций в отрасли экономики. Разработаны научно обоснованные практические предложения по повышению эффективности специальных экономических зон за счёт активизации инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: инфраструктура, специальная экономическая зона, налоговые льготы, инвестор, внешняя торговля, экспорт, импорт, цифровые технологии, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная активность, инвестиционный климат, свободная экономическая зона.

KIRISH

Maxsus iqtisodiy zonalar ularni tashkil etuvchi davlatlar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Ularning faoliyati, avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va liberallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy jihatdan tashqi bozorlarga ochiqligi bilan ajralib turadi. Ularda amal qiluvchi bojxona, soliq va investitsiya rejimlari tashqi hamda ichki investorlar uchun qulay va rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishning muhim sabablaridan biri shundan iboratki, davlat iqtisodiyotini kapital oqimlari uchun to'liq erkinlashtirish o'rniga, investitsiyalarni maqsadli hududlar kesimida samarali boshqarishni afzal ko'radi. Shu bois, maxsus iqtisodiy zonalar qisman ochiqlik tamoyili asosida investitsion faollikni rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida shakllantiriladi.

Turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalarining umumiy jihati shundaki, ularda tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona, moliyaviy va soliq imtiyozlari hamda umumiy iqtisodiy rejimga nisbatan qo'shimcha ustunliklar taqdim etiladi. Natijada qulay investitsiya muhiti shakllanib, hududlarning investitsion jozibadorligi ortadi hamda zonalar samaradorligi oshadi.

Bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi, global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va raqobatning kuchayib borishi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga



tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda maxsus iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyotning investitsion salohiyatini kengaytirish va eksportbop ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus iqtisodiy zonalarining mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o'rni yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion faollikni oshirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim V. D. Adrianovning ta'kidlashicha, "maxsus iqtisodiy hududlar milliy hududning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy muammolarni hal etishda hamda investitsion faollikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi" [1]. Mazkur yondashuv maxsus iqtisodiy zonalarini hududiy rivojlanishning samarali instrumenti sifatida baholash imkonini beradi.

Iqtisodchi olimlar T. L. Danko va Z. M. Okrutilar maxsus iqtisodiy hududlarni "qulay investitsiya muhitini shakllantirish hamda ishlab chiqarish, savdo va ilmiy faoliyatni rag'batlantirish mexanizmi" [2] sifatida talqin qilganlar. Ushbu fikr bugungi kunda hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni faol jalb etish jarayonida maxsus iqtisodiy zonalarining rolini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham maxsus iqtisodiy zonalarining imtiyozli tartibi va ma'muriy boshqaruv mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, A. V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev va N. G. Muminovlarning fikricha, "erkin iqtisodiy hudud — bu mahalliy va xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiy rejim amal qiladigan chegaralangan hudud" [3].

S. S. Mirzaliyevaning ta'rifiga ko'ra, erkin iqtisodiy zona — mamlakat hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik vazifalarni hal etish maqsadida tashkil etiladigan, maxsus ma'muriy boshqaruv hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun imtiyozli rejimga ega bo'lgan qismidir [4].

Sh. I. Mustafoulovning ta'kidlashicha, erkin iqtisodiy hudud mamlakatning investitsion imidjini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, erkin iqtisodiy hududlar mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish jarayoniga xizmat qiladi va hududiy rivojlanishga qo'shimcha turtki beradi. Bunday hududlarni tashkil etish nafaqat alohida hudud uchun qo'shimcha daromad manbai yaratadi, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy multiplikativ ta'sir ko'rsatadi [5].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, maxsus iqtisodiy zonalarini muayyan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda kengaytirilgan mustaqillikka, boshqaruvning maxsus rejimiga va investorlar uchun qulay iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lgan hudud sifatida ta'riflash mumkin. Ushbu umumlashtirilgan ta'rif jahon amaliyotida uchraydigan turli shakldagi erkin iqtisodiy hududlarning mazmun-mohiyatini yagona konseptual asosda izohlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik kuzatuv, tahliliy sharhlash, tizimlashtirish va tasniflash, ilmiy abstraksiyalash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

Shuningdek, maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonida Jahon banki hamda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchiligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar vositasida tegishli hududlarda xalqaro standartlarga mos keluvchi zamonaviy sanoat-ishlab chiqarish va texnik-joriy etish komplekslarini yaratish, ularga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etish ko'zda tutilgan. Bunday maxsus iqtisodiy zonalarda respublikamiz iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirish hamda sanoat va ilm talab qiluvchi mahsulotlar eksportini rag'batlantirishga qaratilgan, sanoat nuqtai nazaridan chuqur qayta ishlanadigan, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha investitsion loyihalar amalga oshiriladi va bu maxsus iqtisodiy zonalarining samaradorligi oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, maxsus iqtisodiy zonalar fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga ham sharoit yaratadi. Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, mamlakat va



hududning barqaror iqtisodiy o'sishiga erishish hamda mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish investitsion faollikni oshirish orqali ta'minlanadi va bu maxsus iqtisodiy zonalarda samaradorlikning ortishiga olib keladi.

Mazkur jarayonda maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faollikni rag'batlantirishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Alohida soliq va bojxona rejimining (imtiyozlarning) mavjudligi, qulay mehnat resurslari, xomashyoni olib kirish va olib chiqish tartibining soddalashtirilgani hamda mahsulot ishlab chiqarish jarayonining yengillashtirilgani mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etadi. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda dunyoda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, maxsus iqtisodiy zonalarda dunyo yalpi mahsulotining deyarli 500 mlrd. AQSh dollaridan ortiq qismi yaratilmoqda hamda ularda qariyb 70 millionga yaqin kishi faoliyat olib bormoqda. Xalqaro tajribada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish samarali yo'llardan biri sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3356-son qarori¹ talabiga muvofiq, hozirda respublikada 22 ta maxsus iqtisodiy zona toifasiga kiruvchi erkin iqtisodiy zonalar hamda 400 dan ortiq kichik sanoat zonalarini faoliyat olib bormoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat sanoatiga va ishlab chiqarish faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish hamda ularning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur hududlar faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning investitsion faolligini yanada oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni² quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan dastur asosida mazkur hududlarning investitsiya muhitini yaxshilashni nazarda tutadi:

- ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish va izchil rivojlantirish;
- muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini davlat investitsiya dasturlariga kiritish orqali ularning moliyaviy ta'minotini yaxshilash;
- maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat yo'nalishi va sohaviy ixtisoslashuviga muvofiq chet el hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.

Maxsus iqtisodiy zonalarda kapital harakatlanishi uchun yaratilgan imtiyozli sharoitlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning faollashuviga, mamlakatning ayrim iqtisodiy hududlariga ishlab chiqarish resurslari oqimining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasidagi maxsus iqtisodiy zonalarining umumiy xarakterli tomoni shundaki, mazkur hududlarda tadbirkorlarga qo'llaniladigan umumiy tartib-qoidalarga nisbatan qulay bojxona, investitsion va moliyaviy imtiyozlar hamda afzalliklar mavjud.

1. O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalarining moliyaviy imtiyozlari quyidagilar:

- subsidiya va imtiyozli kreditlar berish;
- arzon bahoda turli infratuzilmaviy xizmatlar ko'rsatish;
- yer uchastkalari va ishlab chiqarish korxonalaridan foydalanganlik uchun maqbul ijara haqi joriy etish;

2. Soliq imtiyozlari quyidagilar:

- daromad solig'i bo'yicha imtiyozli muddatlar;
- qayta investitsiya qilinadigan foydani rag'batlantirish;
- xorijiy xodimlarni daromad solig'idan ozod qilish;
- soliq ta'tili;
- jadallashtirilgan amortizatsiya mexanizmini qo'llash;

3. Ma'muriy imtiyozlar quyidagilar:

- investorlarni zamon talablariga javob bera oladigan infratuzilma bilan ta'minlash;
- qulay sharoitlarda asosiy kapitalni ijaraga berish;
- ro'yxatdan o'tkazish va bojxona ishlari tartibini maksimal darajada soddalashtirish;
- xorijiy fuqarolarning kelib-ketishi bilan bog'liq viza tartib-qoidalarini yengillashtirish;

4. Tashqi savdo imtiyozlari quyidagilar:

- eksport-import bo'jlarini kamaytirish yoki bekor qilish;
- maxsus iqtisodiy zonalaridan tovarlar eksportini kvota va litsenziyalardan ozod qilish;
- tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sanoat tarmoqlari bo'yicha 9 ta, farmatsevtika tarmoqlarida 7 ta, qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha 2 ta, turizm, transport-logistika hamda sport inventarlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida bittadan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan. "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon",

1 Manba: <https://lex.uz/docs/3392861>

2 Manba: <https://lex.uz/docs/3096605>



“Qo‘qon” va “Xazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 46 million AQSh dollariga teng 62 ta loyiha amalga oshirilgan, 4 600 dan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan [8].

EIZ tomonidan 2019-yil noyabr oyi yakuni holatiga ko‘ra 194 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval. EIZlardagi investitsiya loyihalari to‘g‘risida ma‘lumot

T.r.	MIZ nomlari	Soni	MIZ qiymati (mln.doll.)	Shu jumladan xorijiy investitsiyalar	Ish o‘rinlari, soni
1.	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami	194	1191,9	389,4	13 363
2.	“Nukus-farm” EIZ	3	16,2	3,9	430
3.	“G‘ijduvon” EIZ	13	44,9	0,0	776
4.	“Buxoro-agro” EIZ	0	0,0	0,0	0
5.	“Jizzax” EIZ	16	106,5	55,9	1 614
6.	“Navoi” EIZ	32	170,9	50,0	1 269
7.	“Namangan” EIZ	0	0,0	0,0	0
8.	“Urgut” EIZ	31	102,3	19,6	1 634
9.	“Sirdaryo” EIZ	21	75,2	26,5	1 332
10.	“Sirdaryo-farm” EIZ	3	51,0	0,0	516
11.	“Termiz” EIZ	0	0,0	0,0	0
12.	“Angren” EIZ	50	585,3	221,4	4 409
13.	“Chorvoq” ETZ	0	0,0	0,0	0
14.	“Qo‘qon” EIZ	19	32,2	10,4	1 216
15.	“Hazorasp” EIZ	5	7,1	1,7	157

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy bev-sayti (www.mift.uz) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“Hazorasp” maxsus iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-son Farmoniga [9] asosan mazkur hudud tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda “Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasi hududida 86 ta loyiha doirasida 69 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

“Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasi ishtirokchilari tomonidan xorijdan olib kelingan tovarlarga mazkur qarorga asosan joriy yilning o‘tgan davrida jami 137 milliard so‘m miqdorida bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar qo‘llanilgan. Hududda aeroport va temir yo‘l deposining mavjudligi logistika imkoniyatlarini kengaytirib, eksport-import operatsiyalarini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

2020-yil davomida “Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasi ishtirokchilari tomonidan 13,1 million AQSh dollariga teng tayyor mahsulotlar eksport qilingan. Zonada faoliyat yuritayotgan korxonalarning eksport-import operatsiyalarini tezkor amalga oshirishni ta‘minlash maqsadida “Marg‘ilon” tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti xodimlarining “Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasi ma‘muriy binosida doimiy faoliyat yuritishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa tadbirkorlarga zonadan chiqmagan holda eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Hozirgi kunda “Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasida qiymati 73,5 million AQSh dollariga teng 41 ta loyiha to‘liq ishga tushirilgan bo‘lib, 2 353 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Qiymati 161,57 million AQSh dollariga teng 45 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ular doirasida 4 732 ta yangi ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, qiymati 65 million AQSh dollariga teng 5 ta istiqbolli loyiha mavjud bo‘lib, ularning amalga oshirilishi natijasida 820 ta yangi ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar hududda ishlab chiqarish salohiyatining ortib borayotganini va aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda “Qo‘qon” maxsus iqtisodiy zonasida 96 dan ortiq sanoat korxonasi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 19 tasi faoliyatini boshlagan. Shulardan 4 tasi xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etilgan, qolganlari mahalliy investorlar tomonidan moliyalashtirilgan. E‘tiborli jihati shundaki, zonada joylashgan korxonalar moliyaviy manbalari tarkibida bank kreditlari ulushi yuqori bo‘lib, bu ishlab chiqarish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining faol ishlayotganini anglatadi [10].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat hududlarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish hamda ularning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Maxsus iqtisodiy zonalar orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududiy bandlikni ta'minlash imkoniyatlari sezilarli darajada ortadi. Xorijiy davlatlarning maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu hududlarni barqaror rivojlantirishning samarali va izchil mexanizmlari mavjud bo'lib, ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tajribalarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- respublikamizda amaldagi maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy jarayonlarni yanada soddalashtirish, mazkur yo'nalishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalariga, xususan farmatsevtika sohasiga xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb qilish maqsadida yirik transmilliy kompaniyalar uchun alohida imtiyozlar paketini ishlab chiqish va taklif etish;
- maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion salohiyatini oshirish hamda ularning samaradorligini kuchaytirish maqsadida infratuzilmani izchil rivojlantirish va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адрианов В. Д. Специальные экономические зоны. Журнал «ЭКО», 1997, № 3, с. 42.
2. Данко Т. Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. Москва: ИНФРА-М, 1998. 168 с.
3. Vaxabov A. V., Xajibakiyev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2010. 180 b.
4. Mirzaliyeva S. S. Maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: TDIU, 2001. 8 b.
5. Mustafqulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. 326 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi PQ-3356-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/4737511>
7. O'zbekiston Respublikasi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. Manba: <https://lex.uz>
8. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish masalalari. Manba: <http://xs.uz/index.php/homepage/iqtisodijot/item/11367-erkin-tisodij-zonalar-va-kichik-sanoat-zonalarini-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4931-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. Manba: <https://customs.uz/uz/region/news/5090>
11. Abdukakhorov B. U. (2022). The Impact of Tax Benefits on the Improvement of Special Economic Zones. Central Asian Journal of Theoretical & Applied Sciences, 3(6), pp. 371–376. Available at: <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/666>
12. Abdukakhorov B. U. (2022). Special Economic Zones as a Factor of Regional Development. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), pp. 613–616. Available at: <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2331>
13. Abdukakhorov B. U., Karimkulov J. I. (2022). Development of Special Economic Zones in the Context of the Digital Economy. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 7, pp. 353–359. Available at: <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/611>
14. Abdukaqorov B. U. (2022). Повышение инвестиционной привлекательности экономических регионов Узбекистана и улучшение условий для привлечения иностранных инвестиций. Студенческий вестник, № 14(206). URL: <https://studvestnik.ru/journal/stud/herald/206>
15. Abdukaqorov B. U. (2022). Роль инвестиционной деятельности в экономическом развитии стран G7. Экономика и социум, № 4(95). URL: https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_891644f403cd434e895978f77fb3190e.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>